

**KAMOLIDDIN BEHZOD IJODI VA UNING SHARQ MINIATYURA
SAN'ATI HAMDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI RIVOJIDAGI AHAMIYATI**

Esanova Hulkar Abdurayim qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Tasviriy san'at va

muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabasi

e-mail: hulkaresanova410@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning hayoti, ijodiy faoliyati hamda Sharq miniatyura san'ati rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, uning asarlarining badiiy xususiyatlari, kompozitsion yechimlari va tasviriy san'at tarixidagi o'rni yoritib beriladi. Behzod ijodining nafaqat XV-XVI asrlar Sharq san'ati taraqqiyotidagi ahamiyati, balki zamonaviy tasviriy san'at ta'limi jarayonida estetik did, ijodiy tafakkur va badiiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq miniatyura san'ati, tasviriy san'at, Hirot maktabi, miniatyura rangtasviri, kompozitsiya, portret san'ati, badiiy meros, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur.

Abstract: this article provides a scientific analysis of the life and creative activity of the great painter Kamoliddin Behzod and his contribution to the development of Eastern miniature art. It also highlights the artistic features of his works, their compositional solutions, and their place in the history of visual arts. The study substantiates not only the importance of Behzod's work in the development of Eastern art in the 15th-16th centuries, but also its pedagogical potential in modern visual arts education, particularly in developing aesthetic taste, creative thinking, and artistic skills.

Keywords: Eastern miniature art, visual arts, Herat school, miniature painting, composition, portrait art, artistic heritage, aesthetic education, creative thinking.

Аннотация: в данной статье с научной точки зрения анализируются жизнь и творческая деятельность великого художника Камолиддина Бехзода, а также его вклад в развитие восточного миниатюрного искусства. Кроме того, освещаются художественные особенности его произведений, композиционные решения и место в истории изобразительного искусства. Обосновывается значение творчества Бехзода не только в развитии восточного искусства XV–XVI веков, но и его педагогические возможности в формировании эстетического вкуса, творческого мышления и художественных навыков в процессе современного художественного образования.

Ключевые слова: восточное миниатюрное искусство, изобразительное искусство, гератская школа, миниатюрная живопись, композиция, портретное искусство, художественное наследие, эстетическое воспитание, творческое

МЫШЛЕНИЕ.

Tarixiy xotira har qanday xalqning ma'naviy taraqqiyotida, milliy o'zligini anglash jarayonida hamda jamiyatning madaniy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. O'z tarixini chuqur o'rganish, ajdodlar qoldirgan boy ilmiy va madaniy merosni xolis va haqqoniy baholash milliy iftixor tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, Sharq sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar, mutafakkirlar va san'at arboblari faoliyatini o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Imom al-Buxoriy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar qatorida tasviriy san'at tarixida o'zining betakror ijodi bilan alohida o'rin egallagan Kamoliddin Behzod ham jahon madaniy merosining yorqin namoyandalaridan biri hisoblanadi [3:140]. Uning ijodiy faoliyati Sharq miniatyura san'atining yuksak bosqichga ko'tarilishida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu jarayon keyinchalik butun dunyo tasviriy san'ati rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Kamoliddin Behzod taxminan 1455 yilda Hirot shahrida hunarmand oilasida tavallud topgan. Ba'zi tarixiy manbalarda uning asl ismi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi, "Behzod" esa ko'pincha uning badiiy taxallusi sifatida talqin qilinadi. Yoshligida ota-onasidan ayrilgan bo'lajak musavvir mashhur rassom va naqqosh Mirak Naqqosh tomonidan tarbiyaga olinadi. Mirak Naqqosh Hirot tasviriy san'at maktabining yetuk namoyandalaridan biri bo'lib, u yosh Behzodning badiiy qobiliyatini erta payqab, unga naqqoshlik va kitob bezagi san'ati sirlarini o'rgatadi. Hirotida faoliyat yuritgan "Nigoriston" nomli san'at muhiti esa yosh iste'dodning kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan [3:141]. Bu muhitda rassomlar, hattotlar, musiqashunoslar va boshqa ijodkorlar jamlangan bo'lib, ular o'zaro ijodiy hamkorlik asosida san'atning turli yo'nalishlarini rivojlantirganlar.

Behzodning san'atkor sifatida shakllanishida uning ustozlari muhim rol o'ynagan. Mirak Naqqoshdan tashqari, u buxorolik ustoz Jahongirning shogirdi bo'lgan mashhur musavvir Pir Sayid Tabriziydan ham saboq olgan. Bu ustozlar Sharq miniatyura san'ati an'analari chuqur o'zlashtirgan ijodkorlar bo'lib, ular rang uyg'unligi, kompozitsion tuzilish hamda mayda detallarni aniqlik bilan tasvirlash kabi badiiy uslublarni mukammal rivojlantirganlar. Behzod keyinchalik ana shu tajribalarni yanada boyitib, o'ziga xos ijodiy uslubni shakllantirdi. Natijada uning asarlarida realizm elementlari, kompozitsion muvozanat hamda inson ruhiy holatini nozik ifodalash kabi jihatlar yaqqol namoyon bo'la boshladi [9:3]. XV asrning ikkinchi yarmida Hirot shahri Temuriylar davlatining eng yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida shahar ilm-fan, adabiyot va san'atning markaziga aylandi. Saroy atrofida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sulton Ali

Mashhadiy kabi mashhur adib va san'atkorlar jamlangan edi. Bu davr Hirot madaniy muhitining gullab-yashnagan davri bo'lib, u yerda kitob bezagi, miniatyura san'ati, hattotlik va boshqa ijodiy yo'nalishlar jadal rivojlandi [3:142]. Ana shunday muhit yosh Behzod ijodining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Behzodning ijodiy faoliyati aynan Sulton Husayn Boyqaro saroyida rivoj topdi. Alisher Navoiy uning ijodiga katta e'tibor qaratib, san'atkorni qo'llab-quvvatlagan. Navoiy davrida kitob bezagi san'ati alohida rivojlanib, adabiy asarlar uchun yaratilgan miniatyuralar tasviriy san'atning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Behzod ham aynan shu jarayonda faol ishtirok etib, o'zining noyob miniatyuralari bilan shuhrat qozondi. 1487 yilda Sulton Husayn Boyqaroning maxsus farmoni bilan u Hirotidagi saroy kutubxonasining boshlig'i etib tayinlandi. Mazkur lavozim o'sha davrda juda katta nufuzga ega bo'lib, kutubxonada faoliyat yurituvchi musavvirlar, hattotlar va kitob bezakchilari aynan Behzod rahbarligida ishlaganlar [3:143]. 1506 yilda Sulton Husayn Boyqaro vafotidan so'ng Hirot siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Shahar Shayboniyxon qo'lga o'tdi. Shayboniyxon ham san'atni qadrlagan hukmdor bo'lib, u Behzod ijodiga hurmat bilan qaragan va uning faoliyatini davom ettirishiga imkon yaratgan. Biroq keyinchalik Safaviylar davlati asoschisi Shoh Ismoil Hirotni egallagach, bir qator iste'dodli san'atkorlar qatori Behzodni ham Tabrizga olib ketadi. Tabrizda musavvir o'z faoliyatini davom ettirib, miniatyura san'atining yangi maktabini yaratishga muvaffaq bo'ladi. 1522 yilda Shoh Ismoilning farmoni bilan u Tabriz saroy kutubxonasining boshlig'i etib tayinlanadi. Shu tariqa Behzod nafaqat Hirot, balki Tabriz san'at maktabining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shgan [3:144]. Kamoliddin Behzod ijodida portret janri alohida o'rin tutadi. Uning "Sulton Husayn Boyqaro portreti" hamda "Shayboniyxon portreti" asarlari o'sha davr portret san'atining yorqin namunalari hisoblanadi. Bu asarlarda hukmdorlarning tashqi qiyofasi bilan birga ularning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy mavqei va shaxsiy fazilatlarini ham badiiy vositalar orqali ifodalangan [3:144]. Miniatyuralarda ranglar uyg'unligi, chiziqlarning aniqligi hamda kompozitsiyaning mukammalligi san'atkorning yuqori mahoratini namoyon etadi. Shu jihatdan Behzod Sharq miniatyura san'atida realizm elementlarini kuchaytirgan musavvirlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Musavvir ijodida tarixiy voqealar va saroy hayotini aks ettiruvchi kompozitsiyalar ham muhim o'rin egallaydi. "Sulton Husayn Boyqaro saroyida ziyofat" nomli asar ana shunday miniatyuralardan biridir. Unda saroy hayotining nafis manzarasi tasvirlangan bo'lib, hukmdor va uning ayonlari bog' ichidagi supada o'tirgan holda aks ettirilgan. Xizmatkorlarning harakati, meva-chevalar, sharbat idishlari hamda kiyim-kechaklarning rang-barangligi orqali o'sha davr saroy muhitining badiiy tasviri yaratilgan. Kompozitsiyaning muvozanati va ranglarning uyg'unligi bu asarning badiiy qiymatini yanada oshiradi. Behzodning yana bir mashhur asari "Masjid qurilishi" yoki "Samarqanddagi masjidida" nomi bilan tanilgan miniatyuradir. Bu asar Nizomiyning

“Xamsa” asari uchun ishlangan bo‘lib, unda me‘moriy inshoot qurilish jarayoni tasvirlangan. Asarda quruvchilar turli guruhlarga bo‘lingan holda faol mehnat jarayonida aks ettirilgan. Musavvir mehnat qurollari, kiyim-kechaklar va qurilish jarayonini mayda detallar bilan tasvirlab, o‘sha davr ijtimoiy hayoti haqida muhim ma‘lumotlar beradi. Bu miniatyura kompozitsion mukammalligi va mehnat jarayonini badiiy ifodalashdagi realizmi bilan ajralib turadi. Shu sababli u Sharq miniatyura san‘atining eng yuksak namunalaridan biri sifatida baholanadi.

Kamoliddin Behzod uzoq umr ko‘rib, o‘z faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Ularning orasida Sulton Muhammad, Qosim Ali, Muzaffar Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi iste‘dodli musavvirlar bor edi. Bu shogirdlar keyinchalik Hirot, Tabriz, Buxoro, Samarqand, Sheroz, Isfahon va Hindiston miniatyura maktablarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Natijada Behzod maktabi Sharq tasviriy san‘ati tarixida alohida badiiy yo‘nalish sifatida shakllandi [9:4]. Behzod ijodi Sharq va G‘arb olimlari tomonidan ham yuksak baholangan. Mashhur tarixchi Xondamir “Habib us-siyar” asarida uni “mo‘yqalami bilan tasvirga jon bag‘ishlovchi san‘atkor” sifatida ta‘riflagan. Keyingi davr san‘atshunoslari esa uning badiiy mahoratini e‘tirof etib, uni ko‘pincha “Sharq Rafaeli” deb ataganlar. Bu ta‘rif san‘atkorning jahon tasviriy san‘ati tarixidagi o‘rnini yaqqol ifodalaydi.

Behzod ijodi nafaqat XV-XVI asrlar Movarounnahr madaniyatida, balki butun Sharq tasviriy san‘ati taraqqiyotida ham muhim rol o‘ynadi. Uning asarlarida rang va kompozitsiya uyg‘unligi, inson ruhiyatini nozik tasvirlash, mayda detallarni mukammal ishlash kabi badiiy uslublar keyingi davr musavvirlari uchun namunaga aylandi. Shu sababli san‘atshunoslar uning faoliyatini Markaziy Osiyo tasviriy san‘ati tarixida o‘ziga xos uyg‘onish davrining muhim bosqichi sifatida baholaydilar.

Hozirgi kunda Kamoliddin Behzod merosi dunyoning ko‘plab yirik muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda. Uning asarlari AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Fransiya, Germaniya va Misr kabi mamlakatlarning ilmiy va madaniy muassasalarida o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda esa uning nomi bilan Toshkentdagi Milliy rassomlik va dizayn instituti atalishi hamda musavvirga bag‘ishlangan muzey faoliyat yuritishi buyuk san‘atkor merosiga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtiromning ifodasidir.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida Behzod ijodini o‘rganish tasviriy san‘at ta‘limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sharq miniatyura maktabi namunalarini o‘rganish o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda milliy madaniy merosga hurmat tuyg‘usini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san‘at darslarida tarixiy merosdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [4:356]. Shuningdek, san‘at mashg‘ulotlari shaxsning estetik va ijodiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita bo‘lib, u o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va tasavvurini boyitadi

[8:183]. Miniatyura san'ati namunalarini tahlil qilish esa kompozitsiya tuzilishi, rang uyg'unligi va badiiy tafakkurni rivojlantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi [6:2]. Tasviriy san'at orqali yoshlarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki badiiy faoliyat shaxsning estetik dunyoqarashi, ijodiy fikrlashi va madaniy tafakkurini shakllantiradi [7:3]. Shu bilan birga, tasviriy san'at mashg'ulotlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi [10:156]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, san'at ta'limi jarayonida tarixiy va madaniy merosdan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [11:2]. Shunday qilib, Kamoliddin Behzod ijodi nafaqat Sharq miniatyura san'atining yuksak cho'qqisi, balki jahon tasviriy san'ati tarixida ham muhim o'rin tutuvchi badiiy merosdir. Uning asarlarida aks etgan ranglar uyg'unligi, kompozitsion mukammallik va inson ruhiyatini chuqur tasvirlash san'atshunoslar tomonidan yuqori baholanadi. Behzod merosini chuqur o'rganish va uni yosh avlodga targ'ib etish milliy madaniyatimizni rivojlantirish, tarixiy merosimizni asrab-avaylash hamda tasviriy san'at ta'limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kamoliddin Behzod ijodining san'atshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan o'rganilishi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tasviriy san'at tarixidagi buyuk namoyandalar merosini ilmiy jihatdan tahlil qilish nafaqat san'at taraqqiyotini chuqur anglashga, balki zamonaviy ta'lim jarayonida samarali metodlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Xususan, tasviriy san'at mashg'ulotlarida tarixiy san'at namunalari va buyuk musavvirilar ijodidan foydalanish o'quvchilarda estetik tafakkur, badiiy tasavvur hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, san'at darslarida tarixiy merosga asoslangan metodik yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4:356]. Shu nuqtai nazardan, Kamoliddin Behzod ijodini o'rganish portret san'ati, kompozitsiya va rang tasvirining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Behzod miniatyuralarida inson qiyofasi, yuz ifodasi va ruhiy holatining nihoyatda nozik tasvirlanishi bugungi tasviriy san'at ta'limi jarayonida portret chizishni o'rgatishda muhim metodik asos bo'la oladi. Zamonaviy san'at pedagogikasida portret chizish jarayonida inson qiyofasining morfologik va fiziognomik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalarning kuzatuvchanlik qobiliyatini oshirib, obraz yaratish jarayonini yanada mukammallashtirishga yordam beradi [1:12]. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlari yoshlarning nafaqat estetik didini, balki ma'naviy dunyoqarashini ham rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, san'at bilan shug'ullanish shaxsning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish

imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, badiiy faoliyat orqali yoshlar o'z ichki kechinmalarini ifodalash, atrof-muhitni estetik jihatdan idrok etish hamda milliy madaniy merosga hurmat bilan qarashni o'rganadilar [5:303]. Shu jihatdan qaraganda, tasviriy san'at tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kamoliddin Behzod merosining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi o'quvchilarda milliy san'at an'alariga qiziqish uyg'otish bilan birga, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Miniatyura san'atining kompozitsion tuzilishi, ranglarning uyg'unligi, obrazlarning ifodaviyligi kabi jihatlarni o'rganish yosh rassomlarning badiiy didini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy san'at asarlarini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'tmish davr madaniyati, turmush tarzi va estetik qarashlari haqida muhim bilimlarga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, Kamoliddin Behzod ijodi Sharq miniatyura san'atining eng yuksak namunasini tashkil etadi. Uning badiiy merosi nafaqat XV-XVI asrlar tasviriy san'ati taraqqiyotida, balki jahon madaniy merosi tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Behzod yaratgan miniatyuralar rang va kompozitsiya uyg'unligi, obrazlarning chuqur badiiy ifodasi hamda real hayot manzaralarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Musavvir ijodi keyingi davr san'atkorlari uchun muhim ijodiy maktab vazifasini o'tab, Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda Behzod merosini o'rganish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish tasviriy san'at ta'limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tasviriy san'at mashg'ulotlarida uning asarlarini tahlil qilish o'quvchilarda badiiy tafakkur, ijodiy yondashuv hamda estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli Kamoliddin Behzod ijodiy merosini chuqur o'rganish, uni ilmiy jihatdan tadqiq etish va yosh avlodga keng targ'ib qilish milliy madaniyatimizni rivojlantirish hamda tasviriy san'at ta'limini takomillashtirish yo'lida muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khudayberdievich, B. A. . (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38>
2. Хайров Расим. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД И СОЗДАНИЕ СИТУАЦИИ УСПЕХА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. В *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024)* Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10778131>
3. Жумабоев, Наби Пардабоевич. "Камолиддин беҳзоднинг шарқона тасвирий санъат услуби ва асарлари таҳлили." *Oriental Art and Culture III* (2020): 139-145.

4. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O ‘RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 355-358.
5. Imomov, F. S. o'g'li . (2023). TARBIYASI OG'IR BOLALARNI QAYTA TARBIYALASHDA TASVIRIY SAN'ATNI O'RNI. SCHOLAR, 1(33), 302–306. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10341543>
6. Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2025, октябрь 21). IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPOZITSIYANING PEDAGOGIK AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17407745>.
7. Shoxista, Y. "TASVIRIY SAN'AT MASHG ‘ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI." Uz-Conferences, 2023.
8. Faxriddinovich, Xamrayev Abubakir. "TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNI ESTETIK VA IJODIY RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 2.4 (2025): 181-187.
9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
10. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." Innovative Science in Modern Research (2023): 156-157.
11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.